ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Ibratov Ulug'bek Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

ibratovulugbek@gmail.com

KORXONALARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI VA ULARNING TAKOMILLASHTIRISH USULLARI TAHLILI ("O'ZTRANSGAZ" AJ MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarning moliyaviy hisobotlari mazmuni, ularni tuzish va tahlil qilish amaliyoti hamda hisobot tizimini takomillashtirish yo'llari o'rganilgan. Tadqiqotda korxona faoliyatini baholashda moliyaviy hisobotlarning ahamiyati, ularning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Xususan, "O'ztransgaz" AJ misolida moliyaviy hisobotlarning tarkibi, asosiy ko'rsatkichlari va ularni tahlil qilish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamlashtirish va zamonaviy tahlil usullarini joriy etish orqali ularni takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, korxona faoliyati, xalqaro standartlar, IFRS, likvidlik, rentabellik, "O'ztransgaz" AJ

ABSTRACT. This article examines the essence of corporate financial statements, their preparation, analysis practices, and ways of improving the reporting system. The study highlights the importance of financial statements in evaluating company performance, as well as ensuring their transparency and reliability. In particular, the structure, key indicators, and analytical methods of financial statements are analyzed based on the example of Uztransgaz JSC. Furthermore, the paper substantiates the directions for improving financial reporting through alignment with international standards, digitalization, and the application of modern analytical approaches.

Keywords: financial statements, accounting, financial analysis, company performance, international standards, IFRS, liquidity, profitability, Uztransgaz JSC.

KIRISH

Hozirgi kunda korxonalarning moliyaviy hisobotlari iqtisodiy boshqaruvning eng muhim axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida moliyaviy hisobotlar orqali korxonaning moliyaviy holati, faoliyat natijalari va pul oqimlari baholanadi hamda investorlar, kreditorlar va davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda asosiy vosita sifatida foydalaniladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligi kapital bozorlarining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

"O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasining gaz sanoatida faoliyat yurituvchi yirik davlat korxonasi hisoblanadi. Kompaniya va uning sho'ba korxonalari tabiiy gazni transportirovka qilish, tranzit, saqlash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanadi.

2022-yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida kompaniya faoliyati tubdan o‘zgartirildi. Xususan, 2022-yil 1-avgustdan boshlab gazni sotib olish va sotish funksiyalari alohida tashkil etilgan “UzGasTrade” AJga o‘tkazildi hamda “O‘ztransgaz” magistral gaz transport tizimining yagona operatoriga aylantirildi.

Mazkur o‘zgarishlar kompaniyaning moliyaviy natijalari va hisobot ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularni tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimida korxonalar faoliyatini baholashda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MSFO) muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda aktivlar va majburiyatlarni baholash, daromadlarni tan olish hamda moliyaviy risklarni aniqlashda MSFO talablariga asoslangan yondashuvlar qo‘llaniladi.

Hisob siyosati doirasida zaxiralarni baholashda eng kam qiymat tamoyilidan foydalanilishi keng tarqalgan bo‘lib, bunda zaxiralar ularning tannarxi va realizatsiya qilish mumkin bo‘lgan sof qiymati orasidan eng pasti bo‘yicha aks ettiriladi. Amaliyotda materiallar va ehtiyot qismlar FIFO usulida, ayrim hollarda esa o‘rtacha tortilgan qiymat usulida baholanadi, bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda ularni dastlab adolatli qiymatda tan olish va keyinchalik amortizatsiyalangan qiymatda hisobga olish tamoyili qo‘llaniladi. Shu bilan birga, debitorlik qarzlari bo‘yicha kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash moliyaviy tahlilning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv kontragentlarning moliyaviy holati, to‘lov intizomi va tashqi iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Daromadlarni tan olish jarayonida esa asosiy e’tibor mijoz bilan tuzilgan shartnomalar shartlariga qaratilib, daromad mahsulot yoki xizmat ustidan nazorat xaridorga o‘tgan vaqtda e’tirof etiladi. Xususan, mahsulot realizatsiyasida daromad bir martalik e’tirof etilsa, xizmat ko‘rsatishda esa u vaqt davomida bosqichma-bosqich tan olinadi.

Moliyaviy hisobotlarda muhim o‘rin tutuvchi yana bir jihat — bu baholashlar va taxminlar tizimidir. Korxonalar o‘z faoliyatida turli noaniqlik sharoitida ishlaganligi sababli, aktivlar va majburiyatlar qiymatini aniqlashda professional mulohazalarga tayanadi. Ushbu baholashlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin bo‘lib, bu moliyaviy natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, rivojlanayotgan bozor sharoitida faoliyat yurituvchi korxonalar iqtisodiy, siyosiy va huquqiy omillar ta’sirida yuqori darajadagi risklarga duch keladi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda risklarni hisobga olish, xususan kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi ilmiy va amaliy yondashuvlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish hamda moliyaviy risklarni boshqarishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy va tahliliy qism

Korxonalarning moliyaviy hisobotlari ularning moliyaviy holatini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Ayniqsa, yirik davlat ulushiga ega korxonalar, jumladan “O‘ztransgaz” AJ faoliyatida moliyaviy hisobotlar orqali korxonaning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida gaz sanoatining yetakchi subyektlaridan biri hisoblangan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tabiiy gazni transportirovka qilish, saqlash va tranzit qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi. 2022-yilda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar natijasida kompaniya faoliyati sezilarli darajada o‘zgardi, xususan gazni sotib olish va realizatsiya qilish funksiyalari alohida tashkil etilgan subyektga o‘tkazilib, kompaniya magistral gaz transport tizimining yagona operatoriga aylantirildi. Ushbu o‘zgarishlar kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlari va hisobot tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Kompaniyaning moliyaviy hisobotlari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MSFO) asosida yuritilib, aktivlar va majburiyatlar tarixiy qiymat tamoyiliga asosan baholanadi. Shu bilan birga, hisob siyosatida zaxiralarni baholashda eng kam qiymat tamoyili qo‘llanilib, materiallar FIFO usuli asosida, gaz zaxiralari esa o‘rtacha tortilgan qiymat asosida hisobga olinadi. Moliyaviy instrumentlar dastlab adolatli qiymatda tan olinib, keyinchalik amortizatsiyalangan qiymatda aks ettiriladi.

Daromadlarni tan olish jarayonida kompaniya mijoz bilan tuzilgan shartnoma shartlariga asoslanadi hamda mahsulot yoki xizmat ustidan nazorat xaridorga o‘tgan vaqtda daromadni e’tirof etadi. Xususan, tabiiy gazni realizatsiya qilishda daromad yetkazib berish momentida, transport xizmatlarida esa xizmat ko‘rsatish jarayonida bosqichma-bosqich tan olinadi.

Moliyaviy tahlil jarayonida asosiy e’tibor kutilayotgan kredit yo‘qotishlariga qaratiladi. Ushbu ko‘rsatkich kelajakda olinmay qolishi mumkin bo‘lgan pul oqimlarini ehtimollik asosida baholashga asoslanadi. Korxona debitorlik qarzlarini individual va guruhlashgan holda tahlil qilib, kontragentlarning moliyaviy holati, to‘lov intizomi va tashqi iqtisodiy omillarni hisobga oladi. 360 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan qarzdorliklar to‘liq qadrsizlangan deb hisoblanadi.

2022-yildagi restrukturizatsiya jarayoni natijasida kompaniya debitor va kreditor qarzdorliklarni qayta ko‘rib chiqdi. Natijada kredit yo‘qotishlari bo‘yicha zaxiralar optimallashtirildi hamda kreditorlik qarzlari sezilarli darajada kamaydi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, kompaniya faoliyati rivojlanayotgan bozor sharoitida amalga oshirilayotganligi sababli turli iqtisodiy va moliyaviy risklarga duch keladi. Xususan, qonunchilikdagi o‘zgarishlar, global iqtisodiy vaziyat va energiya resurslari narxlarining tebranishi kompaniya moliyaviy natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda moliyaviy hisobotlarda qo‘llaniladigan baholashlar va taxminlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalarning qiymatini baholashda diskontlangan pul oqimlari modeli (DDP) qo‘llanilib, unda kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymati (WACC) asosiy ko‘rsatkich sifatida olinadi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida aktivlarda sezilarli qadrsizlanish aniqlanmagan bo‘lsa-da, baholash natijalari qo‘llanilgan taxminlarga sezgir ekanligi qayd etiladi.

Moliyaviy holatni baholash shuni ko‘rsatadiki, kompaniyada ayrim davrlarda qisqa muddatli majburiyatlarning aylanma aktivlardan yuqoriligi kuzatiladi, bu esa likvidlik bilan bog‘liq muammolar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, kompaniya strategik ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu qo‘llab-quvvatlash kreditlar, kapital qo‘yilmalar va qarzdorliklarni restrukturizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, korxonaning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hisob siyosati, daromadlarni tan olish mexanizmi va risklarni boshqarish tizimi xalqaro standartlar

asosida shakllangan bo‘lib, bu esa kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish nuqtai nazaridan qaralganda, “O‘ztransgaz” AJda IFRS standartlariga moslashuv jarayoni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon moliyaviy axborotlarning xalqaro darajada solishtiriluvchanligini ta’minlaydi va investorlar uchun ochiqlikni oshiradi.

Shu bilan birga, muallifning fikricha, korxonada moliyaviy hisobotlarni yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

- moliyaviy tahlilni chuqurlashtirish va ko‘rsatkichlar tizimini kengaytirish;
- xarajatlarni optimallashtirish orqali rentabellikni oshirish;
- qarz yukini samarali boshqarish;
- raqamli hisobot tizimlarini keng joriy etish;
- real vaqt rejimida moliyaviy monitoringni yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “O‘ztransgaz” AJ moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, samaradorlikni oshirish va moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rish zarur. Bu esa korxonaning uzoq muddatli rivojlanishi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval.

“O‘**ztransgaz” AJ moliyaviy ko‘rsatkichlarining umumiy tahlili (2023-2024 yy.)**

Ko‘rsatkichlar	**2024 yil (mlrd so‘m)**	**2023 yil (mlrd so‘m)**	**O‘zgarish**
Daromadlar (jami)	15 866	12 846	+3 020
Ishlab chiqarish xarajatlari	6 663	5 786	+877
Ma’muriy xarajatlar	386	522	–136
Davlat subsidiyalari	19	659	–640
Foyda solig‘i (jami)	1 232	86	+1 146
Debitorlik qarzlari (jami)	9 671	2 395	+7 276
Kredit yo‘qotishlari zaxirasi	(1 119)	(1 987)	+868
Zaxiralar (jami)	654	943	–289

Manba: “O‘ztransgaz” AJning 2023-2024 yillar uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida “ O‘ztransgaz” AJning 2023-2024-yillardagi moliyaviy faoliyati dinamikasi tahlil qilinadigan bo‘lsa, bir qator muhim tendensiyalar kuzatiladi. Avvalo, korxona daromadlarining 2024-yilda sezilarli darajada (+3 020 mlrd so‘m) oshgani uning asosiy faoliyati - gaz transporti xizmatlari hajmining kengayganligi hamda transport operatori sifatidagi rolini mustahkamlaganini ko‘rsatadi. Bu holat 2022-yildagi institutsional islohotlar natijasida kompaniya faoliyatining transformatsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarining (+877 mlrd so‘m) ortishi daromadlar o‘sishiga mutanosib ravishda operatsion faoliyat hajmi kengayganini anglatadi. Xarajatlar tarkibida energiya resurslari, ish haqi va amortizatsiya ulushining yuqoriligi korxonaning kapital va resurs talabchan tarmoqqa mansubligini tasdiqlaydi. Bunday sharoitda xarajatlarni

optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma’muriy xarajatlarning kamayishi (-136 mlrd so‘m) boshqaruv samaradorligi oshganligini yoki xarajatlarni qisqartirish siyosati olib borilganligini ko‘rsatishi mumkin. Bu esa korxonaning ichki boshqaruv tizimi takomillashib borayotganidan dalolat beradi.

Davlat subsidiyalarining keskin kamayishi (-640 mlrd so‘m) korxonaning bosqichma-bosqich bozor mexanizmlariga moslashayotganini va davlat qo‘llab-quvvatlashiga qaramlik darajasi pasayayotganini bildiradi. Bu esa uzoq muddatda moliyaviy mustaqillikni ta’minlashga xizmat qiluvchi ijobiy omil sifatida baholanishi mumkin.


Foyda solig‘i hajmining keskin oshishi (+1 146 mlrd so‘m) korxonaning moliyaviy natijalari yaxshilanganini va foydalilik darajasi ortganini ko‘rsatadi. Bu esa daromadlarning barqaror o‘sishi bilan bir qatorda, moliyaviy intizomning mustahkamlanganidan ham dalolat beradi.

Biroq eng muhim jihatlardan biri - debitorlik qarzlarining keskin oshganidir (+7 276 mlrd so‘m). Bu holat korxona mablag‘larining muomaladan chiqib qolishiga, likvidlikning pasayishiga va pul oqimlarining sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yirik kontragentlar bilan hisob-kitoblarning kechikishi moliyaviy risklarni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, debitorlik qarzlarini boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Shu bilan birga, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari zaxirasining kamayishi (+868 mlrd so‘m) qarzdorlikni baholash va nazorat qilish mexanizmlarining ma’lum darajada yaxshilanganini ko‘rsatadi. Bu esa korxonaning risk-menejment tizimi samaradorligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

Zaxiralar hajmining kamayishi (-289 mlrd so‘m) esa moddiy resurslardan samarali foydalanish, ortiqcha zaxiralarni qisqartirish va logistika jarayonlarini optimallashtirish natijasi bo‘lishi mumkin. Bu holat aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligining oshganini bildiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonada daromadlar o‘sishi va moliyaviy natijalar yaxshilanayotgan bo‘lsa-da, debitorlik qarzlari va likvidlik bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Shu sababli kelgusida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun qarzdorlikni boshqarish, pul oqimlarini optimallashtirish va xarajatlarni samarali nazorat qilish muhim yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim.



1-rasm. “O‘ztransgaz” AJ moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi asosida diagramma uchun raqamli ma’lumotlar (2022-2025 yillar).

Manba: O‘zbekiston Respublikasi ochiq moliyaviy hisobotlari, energetika sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar hamda iqtisodiy tahlillar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mazkur jadval “O‘ztransgaz” AJning 2022-2025 yillar davomida shakllangan asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini diagramma (grafik) shaklida tasvirlash uchun mo‘ljallangan raqamli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Jadvalda daromadlar, sof foyda, aktivlar, majburiyatlar hamda rentabellik ko‘rsatkichlari tizimli ravishda aks ettirilgan bo‘lib, ular korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini beradi.

2022-2023-yillar ko‘rsatkichlari mavjud iqtisodiy va moliyaviy tendensiyalarga asoslangan bo‘lsa, 2024-yil ma’lumotlari baholash xarakteriga ega, 2025-yil ko‘rsatkichlari esa prognoz asosida shakllantirilgan. Ushbu yondashuv korxonaning rivojlanish dinamikasini uzluksiz tahlil qilish va kelgusidagi o‘zgarishlarni oldindan baholash imkonini beradi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, daromad va foyda ko‘rsatkichlarining o‘sib borishi korxona operatsion faoliyatining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Aktivlar hajmining ortishi investitsion loyihalar amalga oshirilayotganini bildirsa, majburiyatlarning o‘sishi moliyalashtirish manbalari tarkibida qarz resurslarining yuqori ulushini ko‘rsatadi. Rentabellik ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi esa korxona faoliyatining samaradorligi oshib borayotganini anglatadi.

Muallifning fikricha, mazkur jadval asosida tuziladigan diagrammalar korxona moliyaviy holatidagi asosiy tendensiyalarni vizual ravishda aniqlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yengillashtirish hamda ilmiy tahlilni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kelgusida moliyaviy hisobotlarni yanada takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va qarz yukini samarali boshqarish orqali korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning moliyaviy hisobotlari ularning moliyaviy holatini baholash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va investitsion jozibadorligini aniqlashda muhim axborot manbai hisoblanadi. “O‘ztransgaz” AJ misolida olib borilgan tahlillar korxona moliyaviy ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikaga ega ekanligini, xususan daromad, foyda va aktivlar hajmining o‘sib borayotganini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, rentabellik darajasining nisbatan pastligi, qarz yukining yuqoriligi hamda likvidlik ko‘rsatkichlarining optimal darajaga yetmaganligi mavjud muammolar sifatida aniqlandi. Bu esa moliyaviy hisobotlarni yanada takomillashtirish, ularni chuqur tahlil qilish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamlashtirish va tahlil usullarini takomillashtirish korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Amaliy takliflar:

1. IFRS standartlariga to‘liq o‘tishni ta’minlash. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablar asosida yuritilishi shaffoflik va investitsion jozibadorlikni oshiradi.
2. Moliyaviy hisobotlarni raqamlashtirish. Elektron hisobot tizimlari va avtomatlashtirilgan platformalarni joriy etish orqali ma’lumotlar aniqligi va tezkorligini oshirish zarur.
3. Xarajatlarni optimallashtirish. Ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni qisqartirish orqali rentabellik darajasini oshirish mumkin.
4. Qarzlarni samarali boshqarish**.** Moliyaviy risklarni kamaytirish maqsadida qarz portfelini optimallashtirish va uzoq muddatli moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish lozim.
5. Moliyaviy tahlilni chuqurlashtirish**.** Likvidlik, rentabellik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish tizimini joriy etish zarur.
6. Real vaqt monitoring tizimini joriy etish**.** Moliyaviy ko‘rsatkichlarni doimiy nazorat qilish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anggraeni R. Enhancing Financial Transparency and Corporate Governance in Financial Reporting: An Impact Analysis of IFRS Adoption // Sinergi International Journal of Accounting and Taxation. – 2023.
2. Kateb I. The Bridge to Quality Financial Reporting: Audit Committees’ Mediating Role in IFRS Implementation for Emerging Markets // Journal of Corporate Accounting & Finance. – 2023.
3. Daske H., Gebhardt G. International Financial Reporting Standards and Experts' Perceptions of Disclosure Quality // Abacus. – 2006.
4. Lawalata J., Salle I.Z. The Impact of International Financial Reporting Standards on Global Accounting Practices // Advances in Applied Accounting Research. – 2024.
5. Vokshi N., Asllanaj R. Implementation of IFRS in Kosovo: Effect on the Quality and Relevance of Financial Reporting // Journal of Accounting Finance and Auditing Studies. – 2019.
6. Maharshi A., Jadhav B. A Study of IFRS and Its Adoption in the Indian Banking System // ShodhKosh Journal. – 2024.
7. Nejad M.Y., Khan A.S., Othman J. A Panel Data Analysis of the Effect of Audit Quality on Financial Statement Fraud // Asian Journal of Accounting Research. – 2024.
8. Mohammed B.L., Samir O.B., Aicha O., Talhaoui F.Z., Bourezak A. The Moderating Role of Firm Transparency in Increasing the Impact of IFRS Adoption on Financial Statements Comparability // International Journal of Professional Business Review. – 2024.
9. Ongayi W., Dingwa B., Satande, Malatji. International Financial Reporting Standards Compliance, Disclosure and Relevance of Financial Statements // International Journal of Economics and Business Administration. – 2021.
10. Sukesti F., Almasyhari A.K., Jamil N.N., Marzuki A. IFRS Convergence and Disclosure Quality: The Role of Audit Quality // Universal Journal of Accounting and Finance. – 2022.